

## O'QUVCHILARDA BAYON VA INSHO YOZISH MALAKALARINI OSHIRISH

***Yusupova Nargiza Botirovna***

*Navoiy viloyati, Navoiy shahri, 13-umumiy o'rta ta'lif maktabi,  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Nutq kishi faoliyatining til vositalari asosida tafakkurini ishga solishdir.

O'quvchilar nutqini o'stirish uchun o'qituvchi o'quvchilar tilining talaffuzi ,lug'ati bog'lanishli nutqni faol egallahshlarida yordam beradigan metod va usullardan foydalanish kerak.

Bolani kichik yoshdanoq ravon tilda gapirishda , chiroyli so'zlardan foydalanib fikrini erkin bayon qilishga o'rgatib borish muhim.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchi barcha darslarda nazariy va amaliy bilimlarini olish bilan jumlanı to'g'ri tuzish ,fikrni bayon etish, qayta hikoyalash orqali og'zaki nutq ko'nikmalari rivojlantirib boriladi .

Ta'lif tizimida yozma ishlarning muhim va murakkab turlaridan biri inshodir.Inshoga o'quvchining aynan ana shu tafakkur bilan bog'liq mustaqil fikrlash, taassurotlarni umumlashtirish ,tahlil qilish va xulosalashni ro'yobga chiqaradi.

Insho -arabcha so'zdan olingen bo'lib paydo qilish, yaratmoq, ijod yuzaga keltirish, yozuv, sochma asar, xat kabir ma'nolarni bildiradi.

O'quvchiga insho yozishni o'rgatishga o'zi yaxshi bilgan narsasi haqida insho yozishga o'rgatish kerak. Shunda kengroq fikrlab o'rganadi.Masalan :Tabiat haqida,sevgan hayvoni haqida,yoki sevimli mashg'uloti haqida.

O'quvchilarga insho yozish qoidalarini eslatish kereak:

Tuzilayotgan jumlalar lo'nda va aniq bo'lishi va yozayotganda yuksak savodxonlik bilan yozish tushuntiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari 2-3 sinfdan bayon, 4-sinfdan mustaqil insho yoza olish malakasiga ega bo'lishlari lozim. Ko'pgina o'quvchilar ertak yoki hikoyadan insho yozishga qiynaladilar.Ko'p hollarda kitobdan foydalanadilar,ko'chiradilar.

O'quvchini bayon va insho yozishga tayyorlash:

- O'qituvchi matn yoki hikoyani tushunarli qilib o'qib berishi,
- Kitobga berilgan matn yoki ertakni o'quvchiga ovoz chiqarmay o'qitishi,
- Matndagi notanish so'zlar ma'nosini izohlashi,
- Matndagi asosiy mazmunni aniqlash,
- Matn mazmuniga ko'ra qismlarga bo'lish,
- Qisqacha qayta hikoyalash tuzish,
- O'quvchilar bilan birgalikda rejasini tuzish

-Hikoya qahramonlari tavsifi ( qahramonlar qanday ishlarni amalga oshirdi, qahramonni umumiy ko'rinishi )

Oxiridagi xulosa qismini yozishga o'quvchining qahramonga munosabati erkin fikrlab yozish tushuntiriladi.

O'quvchilarga ana shu tartibda insho yoki bayon yozish singdirilsa ularning fikrlash qobiliyatini keng bo'lib so'z boyligi ham oshib boradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

Aminov M.N ,Majidov A. M,Tarbiya ensiklopediyasi, Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalasi.Nutq o'stirish mashg'ulotlari.